



## NEMIS VA O'ZBEK TILLARI PAREMALARNI TARJIMA QILISH MUAMMOLARI

**Shohsanam Sobirova**

UrDU, Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi  
(Ilmiy rahbar: UrDU Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi **Yusupova Gulxumor**)  
**Annotatsiya.**

Mazkur maqolada xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lgan paremalarning nemis tilidan o'zbek tiliga va o'zbek tilidan nemis tiliga tarjima qilish usullari haqida so'z yuritilgan. Nemis va o'zbek tilidagi maqollar tahlil qilinib, xulosalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** *xalq og'zaki ijodi, paremiologiya, tarjima, parema, folklor.*

### KIRISH.

Xalq og'zaki ijodi xalqning buyuk tarixini, urf-odatlari-yu an'analarini o'zida saqlab keladigan beba ho ma'naviy merosdir. Uni asrab-avaylash, avlodlardan avlodlarga yetkazish xalqning o'z tarixi va buyuk ajdodlariga bo'lgan cheksiz hurmatning, e'zozning ifodasidir. Xalq og'zaki ijodining asrlar osha, avloddan-avlodga, tillardan tillarga o'tib, kamol topib kelayotgan o'ziga xos janrlaridan biri bu – xalq maqollaridir. Ular ko'p asrlar davomida xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tajribalari, hayotiy kuzatishlari asosida yuzaga keladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Paremalarni to'plash, o'rghanishda Mahmud Kashg'ariyning "**Devoni lug'atit turk**" va Gulxaniyning "**Zarbulmasal**" asarlari qimmatli asarlar sirasiga kiradi.

Xalq og'zaki ijodidagi har bir janr xalqning intellektual salohiyatini, o'zligini, o'ziga xosligini ko'rsatuvchi vositadir. Masalan, xalq marosimlarida bajarilgan har bir amallar, irimlarda asrlar davomida amal qilib kelingan urf-odatlar, e'tiqodlar yotsa, topishmoqlarda xalqning donishmandligi, donoligi, topqirligi, hozirjavobligi; qo'shiqlarda xalqning yuraklaridagi orzu-umidlari, intim kechinmalari aks etsa, maqollarda esa xalqning hayot tajribasidan orttirgan saboqlari, xulosalari, inkor etib bo'lmas hayot haqiqati tarzida o'z aksini topadi. Shuning uchun ham ulug' rus yozuvchisi L.N. Tolstoy maqollarning xalq hayoti, ruhiy dunyosi bilan naqadar yaqin ekanligi haqida to'xtalib: "*Har bir maqolda men*



*shu maqolni yaratgan xalqning siyemosini ko ‘raman’ - deb yozgan edi. Adib M.Sholoxov esa “Maqol qanotlanib asrlardan asrlarga, avloddan avlodga ko ‘chib yuradi va bu xalq donishmandligi parvoz qilayotgan ufqning nihoyasi ko ‘rinmaydi” deb xalq maqollarining inson hayotida bitmas-tuganmas xazina ekanligini alohida ta’kidlaydi.*

Turkman paremiologi B. M. Garriyev maqollar dastlab o'tkir kuzatuvchanlik va o'z fikrini bir nechagina so'z bilan ravshan ifodalay olish qobiliyatiga ega bo'lgan bir kishi tomonidan to'qib chiqarilgan, o'rinali ifodalangan bu fikr keyinchalik ko'pchilik tomonidan qabul qilinishi, qo'llanishi oqibatida yuzaga kelishini qayd etib o'tadi [5].

O‘zbek folklorshunoslari, jumladan, Sobirjon Sodiqov maqollarning paydo bo‘lish jarayonini: “Xalqning qalbida ibratli fikr, hayot haqidagi xulosalar pishib yetilib turgan bo‘ladi. Ko‘pni ko‘rgan, zukko va gapga chechan bir odam uni bir necha so‘z vositasida yuzaga chiqaradi. Shu tariqa maqol paydo bo‘ladi”, - deb izohlaydi. Haqiqatdan ham, aslida avval og‘zaki nutqda paydo bo‘luvchi maqollar og‘zaki nutqimizda keng qo‘llaniladi. Ular nutqimizni ixcham va ravon, teran va mazmunli bayon qilishga yordam beradi. Zero, “So‘z ko‘rki- maqol” degan gap ham bejiz emas. Maqollar nutqqa chehradagi qora xoldek, uzukka qo‘yilgan ko‘zdek yarashadi [6].

Nemis tilida maqolga nisbatan qo‘llanadigan *Sprichwort* termini va ushbu terminning kelib chiqish tarixi va u anglatgan ma’noni nemis olimi F.Zayler chuqr o‘rgangan. Olim o‘zining keng hajmdagi asari bo‘lgan “Nemischa maqollar ta’limoti” asarini frazeologiya muammolariga bag‘ishlaydi.

O‘zbek tilshunosligida maqol janri keng tadqiq qilingan. Xususan, 1924- yildan maqollar to‘plab, nashr etila boshlandi. 1924- yilda Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li tomonidan “Otalar so‘zi”, 1926-yilda Sherali Ro‘zi tomonidan “O‘zbek maqollari”, 1939-yilda Buyuk Karimov tomonidan “Maqollar va hikmatli so‘zlar”, 1947-yilda Hodi Zaripov tomonidan “Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi” kabi maqol janriga bag‘ishlangan bir qancha kitoblar nashr qilindi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Paremiologiya (yunoncha paroimia – hikmatli so‘z, zarbulmasal) ma’lum bir tildagi avloddan avlodga og‘zaki shaklda ko‘chib yuruvchi, ixcham va soda, qisqa va mazmundor,



mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo‘lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralarni-premalarni o‘rganuvchi sohadir.

Sh.Imyaminova. Sh.Kamolovalar nemis tilidagi maqollarning kelib chiqishida asosan qadimgi german mifologiyasi o‘z ta’sirini o‘tkazganligini, bundan tashqari xalqning din haqidagi qarashlari, ularning dostonlari, afsonalari asosida ham maqollar shakllana borganligini, shuningdek, qadimgi german urf-odatlari maqollarning gullab-yashnashiga o‘z ta’sirini o‘tkazganligini ta’kidlab o‘tadilar. Xuddi o‘zbek adabiyoti singari nemis yozma adabiyotida ham yozuvchi, shoirlar nemis maqollaridan foydalanishlarini kuzatishimiz mumkin.

Nemis tilda ham o‘zbek tilda ham maqollar o‘zida ibratli va tugal fikrni ifodalaydi. Tarjima jarayonida maqollarni tarjima qilishda muammolar yuzga kelishi mumkin. Maqollarni tarjimada berishning quyidagi usullari mavjud.

1. To‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima
2. Asliyat tilidagi maqolni tarjima tilidagi muqobil variant bilan berish
3. So‘zma-so‘z tarjima qilish

Birinchi tarjima usuli asliyat tilida ham maqsadli tilda ham mavjud maqollarni tarjima qilish uchun mos keladi. Bu tarjima usuliga misol qilib nemis tilidagi *aus einer Mucke einen Elefant Machen* maqoli o‘zbek tiliga *pashshadan fil yasamoq* tarzida tarjimada beriladi. *Aller Anfang ist schwer - har ishning boshi qiyin*. Har ikki tilda ham maqol mazmuni bir xil. Lekin bunday maqollar soni juda kam.

Ikkinchi tarjima usulida asliyat tilida ham maqsadli tilda ham mavjud maqollarning mazmuni bir xil bo‘lishi kerak.

Nemis tilidagi *der Apfel fällt nicht weit vom Stamm* maqolini o‘zbek tilidagi *qush uyasida ko‘rganini qiladi, olmani tagiga olma tushadi* kabi muqobil variant bilan tarjimada berish mumkin. O‘zbek tilidagi *erkaklar oshqozoni bilan sevadi* maqoliga nemis tilidagi *Liebe geht durch den Magen* maqoli muqobil bo‘la oladi.

O‘zbek tilidagi *eshshakdek ishlamoq* maqoli nemis tilida *wie ein Pferd arbeiten* shaklida uchratish mumkin. Bunda ham har ikki millatga xos xususiyat ko‘zga tashlanadi. O‘zbek xalqida asosiy og‘ir ish bajaruvchi sifatida eshshak hayvonidan foydalanilsa, nemis xalqida otdan foydalanishadi va bu maqollarda ham o‘z aksini topadi. *Man soll den Tag*



**nicht vor dem Abend loben** (Kunni kech kelishdan oldin maqtama), ushbu maqolni o‘zbek tiliga **to‘ydan oldin to‘n bichma** tarzida tarjimada berish mumkin.

**O‘zbek tilidagi kim birovga chog‘ qazsa, o‘zi yiqiladi** maqoli nemis tilida **wer anderen eine Grube gräbt, muss leiden** (kim birovga go‘r qazisa, azob chekadi) maqoli bilan muqobildir.

Quyidagi maqol tarjimasi usullaridan birinchi va ikkinchi usullar har doim ham mos kelmasligi mumkin. Chunki nemis va o‘zbek tillaridagi maqollar xalqning o‘tmishi madaniyatini o‘zida aks ettirganligi uchun bir biridan farq qiladi va bir tildan boshqa tilga tarjima qilishda muqobil variant topilmay qoladi. Bunday holatda so‘zma-so‘z tarjima usuli qo‘l keladi.

*Wer zweimal lügt, dem glaubt man nicht- kim ikki marta yolg‘on gapirsa, boshqa unga ishonmaydilar, Wer zuletzt lacht, lacht am schlechtesten-kim oxirda kulta, eng xunik kuladi, Alle Wege führen nach Rom- hamma yo‘llar Rimga eltadi, Zeit ist Geld- vaqt oltindir.*

## XULOSA

Xulosa sifatida aytish lozimki, maqollar o‘ziga xos xususiyatlari bilan xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlaridan ajralib turadi. Ular hajmi jihatidan qisqa va cheklangan, mazmunan serko‘lam, shaklan she’riy yoki nasriy, maqoldagi keltirilgan mazmun, tasvirlangan voqelik ko‘p hollarda ko‘chma ma‘noga ega bo‘ladi.

Maqol qaysi tilda nemis yoki o‘zbek tilida bo‘lishidan qat’iy nazar har doim tarjima qilish mumkin. Buning uchun tarjimon har ikki tilning frazeologiyasidan xabardor bo‘lishi kerak. Tarjimada so‘zma so‘z tarjima qilishdan qochib, asliyat va maqsadli til maqollarining muqobil shaklini topishga harakat qilish lozim, shundagini tarjimon asl maqsadga erishgan bo‘ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Eshonqulov J. Maqollar egasiz emas// O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 2014 yil 4- aprel, № 14.
2. Imyaminova Sh., Kamilova Sh. Nemischa-o‘zbekcha maqol va matallar lug‘ati. – T.: Mumtoz so‘z, 2013.
3. Ismoilov Y., Karimov Sh. Usbekisch-deutsches Wörterbuch. – T.: Nihol, 2011.



4. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T.: Mumtoz so‘z, 2010.
5. Гарриев Б. М. Туркменские пословицы и поговорки. – А.: 1961.
6. Кўшоқов М. Сўз кўрки мақол// Ёш ленинчи, 1963 йил 7май № 55

«RESEARCH AND PUBLICATIONS»  
«СИМВОЛЫ НАУКИ И ПУБЛИКАЦИЙ»

